

## JEK LONDON VA O'TKIR HOSHIMOV IJODIDA O'Z DAVRIDAGI IJTIMOIY HAYOTNING TA'SIR VA TASVIRI

Sh.Ya.Alimova

Termiz davlat universitetining pedagogika instituti katta o'qituvchisi

“Buyuk ishlar buyuk qiyinchiliklarsiz bo'lmaydi” (Volter). Haq gap. Tarixning, bugungi kunning buyuk siymolari yo'lida uchragan qarshiliklar, muammo va qiyinchiliklar ularning matonatli shaxs darajasiga yetishishida yetakchi omil bo'lgan. Ushbu tadqiqot ishida asarlari taxlil etilayotgan buyuk adiblar O'tkir Hoshimov va Jek London hayot yo'li, ijod kamoloti va tajriba mahorati bilan bir – birdan farqlanadi, ham umumiy mushtarak xususiyatlari ko'zga tashlanadi.

Jahon adabiyotida o'ziga xos ijod maktabiga asos solgan, durdona asarlari qo'ldan qo'ymay o'qiladigan amerikalik buyuk publitsist, yozuvchi Jek Londonning bolaligi nihoyatda og'ir kechgan, u bolalikning beg'amliklari, sho'xlik – shodliklarini bilmay ulg'aygan. Jek 1876- yilning 12 – yanvarida San-Fransiskoda dunyoga kelganida otasi oilani tark etgan, oila yetishmovchilikda yashardi. Bo'lajak adib maktab yoshiga yetgach, tungi soat uchdan boshlab ko'cha – ko'yda tongi gazetalarni sotar, uyga qaytib nonushta qilishga ham ulgurmay to'ppa – to'g'ri maktabga jo'nardi. Darslari tugashi bilan kechki gazetalarni tarqatishga majbur edi. Bu haqda avtobiografik asari “Martin Iden” da shunday izohlaydi: “Ko'cha boshida bir qavatli g'isht imorat bo'lib, u yerdan “Axborot” gazetasining kunduzgi sonlarini bosadigan mashinalarning bir me'yordagi g'uvillashi eshilib turardi. U paytda Martin 11da, Moy Qovoq esa 13 da edi.... soat chorak kam to'rtida bosmaxona darvozasi ochildi, hamma bolalar “gur” etib gazeta olgani otilishdi”<sup>1</sup>. Shuningdek, bolalikning beorom yillarini eslab u shunday yozgandi: “Ishlab topgan har bir tsentimni zudlik bilan uyga olib kelardim. Maktabda esa, boshim, oyog'im va egnimdagi kiyim – kechagim abgorligidan doim uyalardim... shanba kunlari muz tashirdim, yakshanbada esa, mast – alas o'yinchilar uchun sharlarni o'rnatardim”<sup>2</sup>.

U topgan – tutganini uyiga tashisada, oilaning biri ikki bo'lmasdi. Chunki o'smirning kun bo'yi tinmay g'imirlab topgani urvoq ham bo'lmasdi. Bir kuni yetti yoshli Jek sinfdoshining xaltasidagi buterbroddan bir burda go'shtni o'g'irlab oladi. Keyinchalik adib bu voqeani iztirob bilan eslab, bir maktubida shunday yozadi : “Men go'shtni yedim, biroq bu qilg'iliqni shundan so'ng hech qachon takrorlaganim yo'q... Xudo shohid! O'zlariga to'q sinfdoshlarim qorinlari to'ygach, go'sht bo'laklarini tashlab yuborishar, men esa ularni terib olib yegim kelar; bunga tayyor tursamda, o'zimni zo'rg'a tutib qolardim” (Hurriyat, 2012). Bu adibning bolalikdanoq yuksak metn – iroda, sabri-qanoat, tog'dek g'urur bilan ulg'ayganining ifodasidir. Mana shunday qiyin sharoitda ham Jek mutolaaga vaqt topar, o'qishga qiziqishi, adabiyotga mehri yuqoriligi tufayli mahalliy gazetalarda chop etgan xabarlar, maqolalar, roman va povestlarni muntazam o'qib borishni kanda qilmasdi. Shahar jamoat kutubxonasi haqida xabar topganda uning quvonchi ichiga sig'maydi, tezda bu ziyo maskaniga a'zo bo'ladi. Uning kitoblarni sevishi, aqliy borlig'ining asosi deb bilishini “Martin Iden” da ham aks ettiradi: “... U Oklend va Berkley kutubxonalarida bir necha soatlab qolib ketardi; u yerda Martin o'z nomiga, Gertruda, Merien va hatto Jimning ham nomiga yozilib qo'ygan edi. Martin shu to'rttala obunachi nomiga birtalay kitob oldi, endi uning hujrasida har kuni kechasi tong otguncha chiroq o'chmaydigan bo'ldi...”(*Martin Iden, 50- bet*).

Boshlang'ich ta'limni tugatgach, Jek konserva fabrikasiga oddiy ishchi bo'lib ishga kiradi. Umuman, hayoti davomida oilasini ta'minlash uchun uning qo'l urmagan ishi qolmaydi. Baliq ovlaydigan kemaga dengizchi bo'lib yollanadi, oltin izlovchilar bilan hamkorlik qiladi, hatto kirxonada terga botib ishlaydi. Shunday mashaqqatli kunlarda ham u imkon topib kitob o'qir, mutolaani kanda qilmasdi. Ammo kitoblarni shunchaki o'qimas, balki ularni uqishga, mag'zini chaqishga urinar, shu tariqa badiiy adabiyot haqida tasavvurini boyitib borardi. Turmushning zalvorli mushtlarini bolaligidanoq totgan, mexnatda toblangan adib adabiyot olamiga, umuman, o'z davri adabiy muhitiga kirish, unda o'z o'rnini topish uni kurashishga, sabr – bardosh bilan ijod qilishga undaydi. Mashaqqatli urinishlar oxir – oqibat o'z mevasini beradi. Nihoyat

<sup>1</sup> London J. Martin Iden.T.: G'afur G'ulom, 1968, 141-bet.

<sup>2</sup> Otaboyeva M. Turmushning mushtlari pishitgan adib. T.: “Hurriyat” gazetasi 2012 – yil, 19-dekabr.

“Overland Mansli” jurnalida uning hikoyasi bosiladi. Bu uning matbuotda chop etilgan birinchi hikoyasi edi. Jek jurnalni do’kon vitrinasi ko’rib uzoq tikilib qoladi, chunki uni sotib olishga qurbi yetmasdi. Shunda u bir tanishidan o’n tsent qarz olib, o’zi uchun bebaho bo’lgan o’sha jurnalni xarid qiladi. Shu tariqa adabiyot dunyosi Jek Londonga o’z eshiklarini ochadi. Garchi uning maqolalari, feleton, pamflet, hikoyalari, keyinroq romanlari chop etila boshlagan bo’lsada, tahririyatlardan oladigan arzimagan qalam haqi tirikchiligini ta’minlashga yetmas, biroq bu ham uni yozishdan, yozuvchi bo’lish maqsadidan qaytara olmas edi.

Jek London o’z asarlarida romantizm, naturalizm, realizm, individualizm yo’nalishlari asosida qalam tebratgan va oddiy hayot qiyinchiliklarini tasvirlagan. Jek Londonning birinchi kitobi haqida fikr bildirgan tanqidchilar to’plamdagi hikoyalar “otashin his – tuyg’ularga limmo - lim” ekanini ta’kidlashgan (Hurriyat, 2012). Adib ijodiga xos jo’shqinlik, hayotiylik, qahramonlari xarakteridagi shijoat, yashash uchun kurashishdek fazilatlar uning aynan o’zining fe’l – atvoridan kelib chiqqan. Ayrim asarlari haqida aytilgan ayovsiz tanqidlar, ijod yo’lida duch kelgan baland – pastliklar ham, xuddi bolalik, o’smirlik chog’ida yelkasiga tushgan turmush mushtlari kabi Jek Londonni Amerika adabiyotining mumtoz adiblari qatoridan joy olishida o’ziga xos omil bo’ldi. Shuni aytish joizki, London birgina asar yozish bilan butun dunyoda shuhrat qozongan va katta mablag’ ishlagan birinchi yozuvchilardandir. London asarlari boshqa tillarga eng ko’p tarjima qilingan Amerikalik yozuvchilardan biridir.

Jek London singari matonatli, maqsadi sari imkonsiz sharoitdan imkon topib ildamlagan va mashaqqatlar chekib muvaffaqiyatga erishgan shaxslar haqida fikr yuritilganda bir haqiqatni – bu dunyoga biror kishi o’z – o’zidan buyuk ijodkor, ulug’ shaxs bo’lib kelmasligini anglaymiz. Bunday insonlar nafaqat sara asarlari tufayli e’zozlanadilar, balki oydin orzulari yo’lida tinimsiz kurashish uchun o’zlarida kuch topganlari, hayot qarshiliklarini yengib, tabiat in’om etgan iste’dodlaridan ezgu maqsadlar yo’lida foydalana olganlari uchun ham barchaga birdek ibrat bo’ladilar. Ular amalga oshirgan ulug’ ishlar, yaratgan mumtoz asarlar, Jek London siymosida ko’rganimizdek, oradan qancha vaqtlar o’tsa ham o’z qadr – qimmatini saqlab qolaveradi.

Jek London o’z hikoyalarida tanti, jasur, oliyjanob, sevgi bobida vafodor, do’stlikda beg’araz, erkparvar kishilarni kuylaydi. Hikoyalarida aytilishicha, chin inson - bu mehnatni sevuvchi, yo’lida uchragan qiyinchilik va g’ovlarni yengib o’tishga tayyor kishidir.<sup>3</sup>

Kichik janr ustalaridan farqli o’laroq Jek London o’z hikoyalarida qahramonlarini olis, kimsasiz o’lkalarga “tashlaydi”, ularni yolg’izlikda, ochlikda, og’ir turmush sharoitlarida haqiqiy insoniylik sinovidan o’tkazadi, xudbinona intilishlar shaxsni qanday fojiiyaviy ahvolga olib borishi mumkinligini real tasvirlarda ko’rsatadi. “Intiho”, “Oltin dara”, “Hayotga muhabbat”, “Bir kunlik qo’nalg’a”, “Lahm go’sht” bunga yorqin misoldir. Yohud, avtobiografik asar qahramoni Martin Iden ham og’ir turmush sharoitiga muhtalo etiladi: “Beshinchi hafta, uning ketidan oltinchi hafta o’tdi. Martin esa hamon mashina singari ishlardi, faqat qalbining eng teran yeridagina allaqanday kichkinagina uchqun bor ediki, u har hafta oxirida velosipedda bir yuz qirq mil keladigan masofani bosib o’tishga majbur etardi. Lekin bu dam olish emas edi... Biroq keyingi shanba kuni u qaqshagan a’zoyi badanidagi horg’inlikni undan ham kuchliroq horg’inlik bilan bartaraf qilish uchun yana velosipedda yetmish mil yo’l bosdi... U hali go’sht yeydigan darajada boy emas edi, shuning uchun to orziqib kutilgan chek yetib kelguncha, bir amallab ochin – to’qin kun kechirib yurdi” (*Martin Iden*, 167, 244- betlar).

O’zbek durdona hikoyalari muallifi bo’lmish Shukur Xolmirzayevning ta’biri bilan aytganda, “Jek Londonning hikoyalaridagi qahramonlar qo’rqoq va botirga, to’g’rirog’i, kuchli va kuchsizga bo’linadi”, misol uchun “The son of night” (Tun farzandi) hikoyasidagi bosh qahramon Lusi hayotida duch kelgan barcha qiyinchiliklarni yengib o’tib, qizil tanlilarning “itoat etish kerak bo’lgan” sardoriga aylansa, Trifden jur’atsizligi bois Lusiga bo’lgan muhabbatini izhor etolmaydi va bir umr afsus – nadomatda yashaydi (*Kitob dunyosi*, 2014). Yoki, benazir kuch – quvvat, metn - iroda sohibi Martin maqsadi yo’lida tinimsiz kurashsa, Ruf esa avvaliga osongina undan voz kechadi.

Jek Londonning shunday hikoyalari borki, kishi mutolaadan so’ng uzoq o’yga cho’madi, bir zumga o’zini muvozanatini yo’qotganday his qiladi. Chunonchi, “Semuel” hikoyasida garchi o’g’illari vafot etib

<sup>3</sup> Saidmurodov S. Hikoyanavis Jek London. T.: “Kitob dunyosi” gazetasi 2014- yil, 12- noyabr.

ketsa-da, tug'ilajak farzandlariga la'nat tekkan faqat bir ismni qo'ygan Margaret Xenenga achinadi kishi. Chunki, *"dunyoda bironta qonun yo'qki, ona farzandiga o'zi istagan ismni qo'yishiga to'sqinlik qila olsin"*. "Oqsoqollar ittifoqi" hikoyasida Imber ismli hindu chol o'nlab, yuzlab oq tanlilarni o'ldiradi, ammo o'quvchi hinduga nisbatan xayrixohlikni tuyadi. Nega deganda, hikoyani o'qish davomida Imberdagi "oliy irq"ga nisbatan nafrat, qasos o'ti adolatlidek tuyuladi. Biroq kalavaning ikkinchi uchi ham bor – Imber odam o'ldirgan!

Ha, Jek Londonning hikoyalari murakkab g'ayrimantiqiylik yetakchi. Bir kitobxon aytganidek, Jek Londonning hikoyalari hazmi oson asarlar emas. Vaholanki, ular sodda, tushunarli tilda yozilgan bo'lsada, hikoyalar chuqur falsafiylik ila sug'orilgan. Shunday ham bo'ladiki, asarlarini o'qigan chog'imizda ulardagi qahramonlarga qo'shib och qolamiz, sovqotamiz, ufurib turgan dengiz to'fonlari-yu, musaffo havosini his etamiz, oxirida esa hatto aniq bir xulosaga kelolmaymiz, asar uni yana qayta o'qib chiqishga undaydi.

Buyuk adib mahoratini Macmillan nashriyot noshiri G.P.Brett shunday baholagan edi: "Jekning asarlari Amerikada yaratilgan eng yaxshi asarlardir" (Jack's fiction represented 'the very best kind of work' done in America. (Dec 27, 1901)); romannavis E.L.Doctorow Londonning *"The Call of the Wild"* (Yovvoyilikning chaqirishi) novellasini: "O'tkir hikoyat... uning shoh asari" ("a mordant parable ... his masterpiece".) deya ta'riflagan; tarixchi D.L. Walker esa, shunday yozadi: "Jack London was an uncomfortable novelist, that form too long for his natural impatience and the quickness of his mind. His novels, even the best of them, are hugely flawed. Some critics have said that his novels are episodic and resemble linked short stories" (*Jek London o'z aqlining o'tkirligi va tezligi, shuningdek, tabiiy betoqatligi bilan ajralib turadigan murakkab yozuvchi edi. Uning hattoki eng yaxshi romanlari ham ma'naviy salmoqdorligi tufayli o'zanidan toshgan edi. Ba'zi tanqidchilar uning asarlariga "epizodik ko'rinishda va bir – biriga ulangan kichkina hikoyalarga o'xshaydi" deya baho berganlar*).

O'n olti yillik sermahsul ijodi davomida hayotni, yengilmaslikni, kurashni madh etib kelgan buyuk yozuvchi qirq yoshida vafot etadi. Mashhur adibning o'limiga bir necha xil sabablar ko'rsatiladi, ammo ko'plab manbalarda, asosan, u 1916 – yil 22 – noyabrda yarim tunda ko'p miqdorda uyqu dorini ichgan holda o'z joniga qasd qilganligi aytiladi. Balki, u o'z asarlaridagi xudkushlik ("Martin Iden") bilan o'z taqdiriga hukm o'qigandir. Ehtimol, qaxramonlari kabi u ham isyon qilmoqchi bo'lgandir. Nima bo'lgan taqdirda ham Jek London inson edi va asarlari orqali inson har qanday vaziyatda o'zligini yo'qotmasligi kerakligini uqtirib kelmoqda. Buyuk yozuvchi o'zi haqida shunday xulosalaydi: "I would rather be ashes than dust. I would rather that my spark should burn out in a brilliant blaze than it should be stifled by dry-rot. I would rather be a superb meteor, every atom of me in magnificent glow, than a sleepy and permanent planet. The proper function of man is to live, not to exist. I shall not waste my days in trying to prolong them. I shall use my time". ~Jack London, 1916. (*Men chang bo'lgandan kul bo'lishni afzal ko'raman. Men chirmoqlar meni bo'g'ib yotgandan ko'ra uchqunim gavhar alangada yonib tugashini afzal ko'raman. Men doimo tinch va sokin sayyoradan ko'ra zo'r meteorit bo'lishni, mendagi har bir atom ajoyib tarzda yashnab turishini afzal ko'raman. Insonning chin ma'nodagi funktsiyasi – bu yashash, mavjud bo'lish emas. Men kunlarimni shularning muddatini uzaytirish uchun sarf etmayman. Men o'z umrimdan foydalanaman*).

Qisqa umri davomida buyuk iqtidor sohibi Jek London 19 roman, 18 to'plam (152 hikoya), 3 pyesa, 8 avtobiografik va publitsistik harakterdagi kitob yaratgan. „Hayotga muhabbat“ (1961), „Qish haqida“ (1962), „Martin Iden“ (1968) va boshqa asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

O'zbek adabiyotini ulkan bir daraxtga qiyos qiladigan bo'lsak, uning kundan-kunga yangicha ko'rk ochib, rivojlanib borishida tom ma'noda ildiz vazifasini bajarayotgan ijodkorlarimizning o'rni beqiyosdir. O'zining ibratli hayot yo'li hamda mazmunli asarlari bilan adabiyot beb atalmish daraxtni ozuqa bilan ta'minlab turgan adiblarimizdan biri bu, shubhasiz O'tkir Hoshimovdir.

Yozuvchi o'zi tug'ilgan yillar bilan bog'liq voqealarni quyidagicha xotirlaydi: "Oyim bir gapni ko'p aytardi: Sen tug'ilganingda qiyomat qoyim bo'lgan edi. Lagerdagi o'ris xotinlar urush boshlanibdi deb yig'lagan, men ammanniing buzog'i, hayron bo'lgandim. Urush allaqayoqda bo'layotibdi-yu, bular nega dod soladi degandim. Keyin aqlim yetdi..."<sup>4</sup>. Bu ayni urush yillari pallasi edi. Adibning beg'ubor bolaligi ana shu mudhish alanganing ta'sirida kechdi. Va bu ehtimolki, yaratgan asarlaridagi dadillik, dovyuraklik va

<sup>4</sup>Adabiyot. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. 6-sinf.T.: Ma'naviyat. 71-bet.

xaqiqatning tug'ilish zaminidir. O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad adib ijodini shunday baholagan edi: "Men O'tkir Hoshimovni jasoratli, qo'rqmas, haqiqatni har qanday sharoitda ham aytoladigan yozuvchi deb atadim. Bu ta'birimni ikkilanmay har qachon, har yerda dadil ayta olaman...".

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov hayotiy voqelikka suyangan holda, asar qahramonlarining ichki olamini har tomonlama mukammal, to'g'ri va aniq tasvirlash, shuningdek, zamonaning dolzarb masalasini ko'tarib chiqish orqali kitobxonning shuuriga ta'sir qiluvchi obrazli tasvirni yarata olgan chinakam iste'dod sohibi edi.

Yozuvchi dastlabki asarlari bilanoq nainki kitobxonlar, balki taniqli adib-larning ham e'tiborini tortdi. Buning sababi adib uslubidagi, tilidagi tabiiy samimiylik, ravonlikda. Adib haqida gap ketganda taniqli munaqqid Umarali Normatovning quyidagi fikrlari o'rinlidir: "Ilk qissasi "Cho'l havosi"dan tortib, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobiga qadar, barcha asarlariga xos mushtarak holat shuki, ular betakror, benazir, sirli musiqiy ohang bilan yozilgan. Muallif qo'lidagi qalam go'yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so'zlar musiqa singari quyilib keladi; uning hikoya va qissalari she'rdek, dostondek o'qiladi, ular sozda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, romanlari ko'p ovozi simfoniyaning eslatadi..."<sup>5</sup>. Yuqoridagi fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, O'tkir Hoshimov asarlari xalqchilligi, yuksak falsafiy mushohadaga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Shuningdek, Ozod Sharafiddinov O'tkir Hoshimov asarlarini jozibador qilgan, ularga o'ziga xos badiiy tarovat baxsh etgan ikki xususiyatni ko'rsatadi: biri adibning badiiy asarni yengil targ'ibot vintchasiga aylantirmasligi bo'lsa, ikkinchisi, asardan kelib chiqadigan muammolarning hammasi eng murakkab savollarga javob izlash, kishini hayajonga soluvchi yuksak badiiy shakllarda amalga oshirilishidir.

O'tkir Hoshimov olamning go'zalligi, insoniyatning shu go'zallikka munosaba-tini, gumanizm mohiyati va qadr – qimmatini butun ijodi badiiy to'qimalariga yoyilib ketgan milliy ma'naviyat ifodasiga singdiradi. Odamzodning ruhiy barkamolligi, ezgu maqsadi haqida falsafiy teran tasvir yo'nalishi adib dunyoqarashi va badiiy tafakkurining kengligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ijodkorning har bir asarida xoh u kichik janr bo'lsin, xoh yirik hajmli badiiy polotno bo'lsin, e'tiqod, oqibat va mehr – muhabbat tushunchalari talqini markaziy chiziqni tashkil etadi. To'g'rirog'i, sog'lom e'tiqod qahramon xarakterining uzviy qismiga aylanadi. Tasvirdagi aniqlik esa, aynan kichikdan kattaga, xususiy hodisalardan hayotiy umumlashmalarga intilishga moyillikning kuchliligi bilan izohlanadi. O'tkir Hoshimov "Cho'l havosi" qissasini yaratgandan so'ng uning kelajakda o'zbek nasrining darg'alaridan biri bo'lishi bashorat qilina boshlandi. Xususan, Abdulla Qahhorning samimiy tilaklari bilan yo'llangan maktubida yozuvchi ijodiy kelajagiga ishonch ruhi aks etgan.

O'tkir Hoshimov asarlaridagi ko'p qatlamlilik, eng avvalo, muallifning nutq tiplaridan foydalanish ichki monologda namoyon bo'ladi. Asardagi voqelikning bir emas bir nechta qahramonlar tilidan, ularning xususiylik munosabati nuqtai nazaridan yakka monologlar asosida ifodalanishi asarning kitobxonda oson, tez va ravshan anglanilishini ta'minlaydi. Masalan, "Nur borki, soya bor" romani so'ngida Abdu-vohidning baxtsiz halokatga uchrashi Sherzod, Sirojiddin va muallif tilidan talqin etiladi-ki, natijada, voqeaning to'laqonli mazmuni, ruhiy mohiyatini aniq his etasiz. Voqeada faqat Sirojiddinni emas, o'sha muhit, zamona ta'siridagi tarbiyaning aybdorligini, asar tub mohiyatini tushunib yetasiz. Yohud, "Ikki eshik orasi" dagi biror voqea unga aloqador bir necha obrazlar tilidan bayon etilishi kitobxonni asarga bog'laydi.

Adib badiiy maqsadlarining tayanch nuqtasini e'tiqod erkinligi tashkil etadi. Shu ma'noda O'.Hoshimov eng razil, qabih qahramonlarni ham qoramaydi, balki ularning hissiy – psixologik holatlarini anglashga va maksimal darajada ifodalashga intiladi. E'tiqodsizlik, manqurtlik fojiasi va ularning sabab – oqibatlari muallif talqinida eng ayanchli muammoga aylanadi (Duysenbayev, 2011). Misol uchun, "Nur borki soya bor" qahramonlari Sayfi Soqiyevich, Sirojiddin, yohud "Ikki eshik orasi" dagi Umar Zakunchi, Ra'no asar davomida salbiy obrazlar bo'lib gavdalanadi, ammo ular tilidan berilgan, aybdori sanalgan hodisotlarni o'z ichki kechinmalari bilan ifodalagan manaloglarini o'qib, ularning psixologik holatlarini bir qadar anglaymiz, ularga chorasizlik qurbonlari deya baho beramiz.

<sup>5</sup>Normatov.U. Yangi o'zbek adabiyoti. T.: Universitet, 2007-y,149-b

<sup>6</sup> Duysenbayev O.I. "O'tkir Hoshimov ijodida ona obrazi", n. diss; T.: 2011, 4-bet

Benazir yozuvchimizning hamisha bir niyyati bo'lgan: "Shunday asar yozsangki, kitobxon uni o'qiyotganda hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan uxlamay, to'lg'onib chiqsa... Vaqti kelib, o'sha kitobni yana qo'lga olganida qaytadan hayajonga tushsa... orzum shu..."<sup>7</sup>.

Bugun adibning bir emas, bir nechta asarlari ana shunday hayajon bilan qayta – qayta o'qilmoqda.

Elimizning ardoqli adibi, O'zbekiston Xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov asarlari "eng holis va eng beshafqat ikki hakam – Kitobxon va Vaqt sinovidan" yorug' yuz bilan o'tib kelmoqda. Chunki ularda inson qismati tasvirlanadi. Zamirida xaqiqat yotadi...

O'tkir Hoshimov tarjimon sifatida O. Berggolts, S. Sveyg, Mustay Karim, V. Shukshin asarlarini o'zbek tiliga o'giran. Uning eng yaxshi va sara asarlari rus va boshqa tillarga tarjima qilingan. Adibning jami nashr etilgan asarlari ellikdan ortiq bo'lib, ularning umumiy tiraji qariyb ikki milliondan ziyod. O'. Hoshimovga samarali ijodiy mehnati uchun 1991 yili «O'zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni berilgan. «Mehnat shuhrati» (1996), «Buyuk xizmatlari uchun» (2001) ordenlari bilan mukofotlangan. Benazir ijodkor 2013 yil 24 may kuni 72 yoshida Toshkent shahrida vafot etdi.

Yozuvchi zarrada quyoshni, qatrada dengizni ko'rsata olgan haqiqiy san'atkor bo'la oldi.

<sup>7</sup> Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T.: O'qituvchi, 1999, 496-bet.